

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
“TASVIRIY SAN`AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI”
KAFEDRASI

Oilichova Munvvar Faxriddinovaning

HARFLAR, SARLAVHALAR, XATBOSHI
BEZAKLARI, O`LCHAMLARINI TOPISH, SURATLARDAGI
VOQIYLIKNI TASVIRLASH AMALLARI, KITOB LOYIHA
MAKETLARINI TAYYORLASH.

mavzusidagi

5110800- “Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” ta`lim yo`nalishi
bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

O`qituvchi

:Bobonazarov.Sh.U

Navoiy-2016

MUNDARIJA

KIRISH.....

I-BOB. TASVIRIY SAN'ATNI O'QITILISH JARAYONIDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI.....

- 1,1** Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maqsadi..
- 1.2** Tasviriy san'at mashg'ulotlarining boshqa fanlarni o'qitishdagi ahamiyati

II-BOB Maktabda badiiy bezash ishlarining mazmuni maqsad va vazifasi

- 2.1** Grafika
- 2.2** Harf va so'zlar yozish
- 2.3** Shakllar va diagrammalar
- 2.4** Kitob grafikasi, kitob maketini yasash.

Umumiy xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi 1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish¹ lozimligini qayd etadi.

Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq estetik va badiiy tarbiyaga bo'lgan ehtiyoj tamoyillariga asoslanmoqda. Ta'lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan. Shu jihatdan olganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tasviriy san'atdan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirish hamda fanni o'qitishni modernizatsiyalash o'zining ko'p qirrali maqsad-vazifasi bilan ajralib turadi va ta'lim tizimi oldiga bir qator vazifalarni ko'ndalang qilib quyadi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir»

Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

¹ I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998, 44-bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"², – deb alohida ta'kidlaydi.

Tasviriy san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim fanlari ichida ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki, aynan tasviriy san'at darslarida san'at va san'atkor olami, san'atning ijtimoiy vazifasi va o'ziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy «tili»ni o'rganib borish orqali o'quvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy san'at va me'morlikdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ko'rish orqali idrok etishini o'stiradi. Ko'z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning farqi va umumiy tomonlari va tashqi ko'rinish jihatdan klassifikasiyalashni anglaymiz. So'nggi paytlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma'lumotlarning 90% idan ortiqrog'ini ko'z bilan ko'rish orqali oladilar. Bu kishilar hayotida ko'zning ahamiyati beqiyos katta ekanligini ko'rsatib turibdi va u ko'z faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabda ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at predmeti ko'p imkoniyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tasviriy san'atning kishilar hayotidagi o'rnini yanada oydinlashadi.

Shunday qilib, maktabda tasviriy san'atni o'qitish orqali bir qator ta'lim va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi, ularning tevarak-atrof haqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Tasviriy san'at va

² I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998, 7-bet.

badiiy mehnat ikkita predmetni o'zida mujassamlashtirganligi sababli har biri haqida alohida to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish realistik rasm chizishni o'rgatishni, uning hayotda kishilarga qanday foyda keltirishini atroflicha ko'rsatib berishni maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchi suhbat jarayonida rasm chizishni bilish har qanday mutaxassislikda qo'l kelishini tushuntirib beradi. Buni u hayotdan olingan misollar, madaniyat arboblarning fikrlari asosida bayon qiladi.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi alohida e'tiborga molik, xarakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, e'tiborsiz, ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushirib qoldiradilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsatadalar. Tanlash va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishiga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobitiyatiga ega bo'lgan ijodkordir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'zi o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi.

Demak, san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks etgiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g'oyalarini ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. Shu bilan birga bunday asarlar kishilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ular ma'naviy olamini, bilim va tajribasini kengaytiradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi :

Men o'z bitiruv malakaviy ishimda, Maktabda badiiy bezash ishlarining mazmuni maqsad va vazifasi ustida ish olib borish haqida, umumiy tushuncha berishni, tasviriy san'at mashg'ulotlarida, taniqli badiiy bezakchi rassomlarning ijodini o'rganishni bir nechta misollar keltirishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yganman.

Ishning tadqiqot ob'ekti :

–Maktabda badiiy bezash ishlarining mazmuni maqsad va vazifasi bo`yicha amaliy ishlarni bajarish ustida ishlash mashg`ulotlarini zamonaviy loyihalash.

Ishning tadqiqot predmeti:

– Maktabda badiiy bezash ishlarining mazmuni maqsad va vazifasi ustida ishlash mashg`ulotlarini zamonaviy loyihalash, milliy va jahon badiiy qadriyatlariga qiziqishlarini rivojlantirish mazmuni, shakli va metodlari

Ishining tadqiqot farazi :

– Maktabda badiiy bezash ishlarining mazmun bo`icha maktab o`quvchilarida maktabdan tashqari muossasalarda badiiy bezak san`atini shakllantirishda zamonaviy mashg`ulotlarini loyihalashdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

– Oliy o`quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, maktab va nafis san`at litseylarida rangtasvir mashg`ulotlarini o`qitishda talaba-o`quvchilar uchun yengil usullardan foydalanib dars berish orqali bilim, malaka ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

–Maktab va kollejlarda o`quvchilarining tasviriy san`at badiiy bezash darslarini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishimizni yozishda quyidagi:

– analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan unumli foydalana oldik.

Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 56 sahifani tashkil etadi.

I-BOB. TASVIRIY SAN'ATNI O'QITILISH JARAYONIDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI.

Talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish muammosi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali usul va vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

Talabalar ongi va qalbiga milliy. istiqlol g'oyasini singdirish ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki o'rta maxsus kasb-hunar kolleji barcha o'quv fanlarining vazifasi sanaladi. Bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng ko'lamda olib borilib, ta'lim-tarbiya jarayo-ning barcha jabhalarida asosiy o'rinni egallashi lozim. Xususan, tasviriy san'atni o'qitilishida bu vazifa talabalarda Vatan tuyg'usini shakllantirish — Ona Vatanga, uning tabiatiga mehr-muhabbat uyg'otish; o'lkamiz boyliklarini asrab-avaylab, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatni tarkib toptirish, ularning ekologik madaniyatni yuksaltirishdan iborat.

«Hozirgi vaqtda eng muhim, eng dolzarb vazifamiz — jamiyatimiz a'zolarini, avalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vatanga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdin.

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan tayyorlangan «milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar» risolasida qayd etilgandek, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi, xalqimiz-ning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, ustoz-shogird an'analari, ajdodlarimizning tarixiy merosidan oziqlanadi. Shu sababdan barcha ta'lim muassasalari tayanch o'quv rejalariga o'quvchi-yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini

huquqiy demokratik jamiyat qurish tamoyillariga moslash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kurslariga kiritilgan.

Tasviriy san'atni o'qitilish jarayonida talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ham o'rganilayotgan mavzu mazmuniga qarab xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy boyliklari, ustoz va shogird an'analari, ajdodlarimizning tarixiy merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nimalar kiradi, — degan savol tug'ilishi tabiiy. Milliy qadriyatlar har bir xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan va yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlarini, A. Karimov. Hushyorlikka da'vat. Toshkent.: O'zbekiston. 1999, 16-bet.marosimlari, bayramlari va millatning o'zligini belgilaydigan o'ziga xos tamoyillari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, marosimlari ham milliy qadriyatlarga kiradi.

Tasviriy san'atni o'qitilishida talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun auditoriya, mustaqil ta'lim mashg'ulotlari hamda ma'naviy-ma'rifiy mavzusiga bog'liq holda mamlakatimizning san'at ko'rgazmalar zali, muzeyi, galereyasiga ekskursiyalar, ulardan oqilona foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar, respublikamizning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy rivojlanish tamoyillari, tasviriy san'at rivojiga hissa qo'shgan rassomlarning badiiy meroslari, tasviriy va amaliy san'atga oid traktatlar, hikmatli hikoyalar, rivoyatlar, afsonalar va maqollardan foydalanish, Respublikamizdagi mavjud san'at muzeylarda saqlanayotgan noyob durdonalarni o'rganish, o'tkazilayotgan «san'at bayrami» kabi tadbirlarga milliy ruh kiritish tavsiya etiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat rivoji davomida insonlar tomonidan yaratilgan va bebaho mulk sanalgan moddiy va ma'naviy boyliklar,

madaniy, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, badiiy, ekologik va boshqa qarashlar yig'indisi sanaladi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar zaminida shakilanadi, ya'ni biror bir millatga mansub milliy qadriyatlar rivojlanib, yillar davomida takomillaslib, boshqa millat va elatlar tomonidan e'tirof etilib tan olinadi. Shu tariqa milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Masalan, o'rta asrlardagi Sharq sivilizatsiyasi o'zbek xalqi uchun milliy qadriyat, jahon xalqlari uchun umuminsoniy qadriyat sanaladi.

Tasviriy san'atni o'qitilishida talabalarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- tasviriy san'atni paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish;
- Sharq mutaffakirlari va allomalarning xalq pedagogikasiga qo'shgan hissalarini yoritish;
 - buyuk rassomlarimizning umumbashariy mulkka aylangan noyob asarlarini o'rganish;
 - tasviriy san'at fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk olimlar hayotining ibratli tomonlarini ko'rsatish.

Talabalarning qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish uchun o'qituvchi milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini chuqur anglashi, olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda mazkur g'oyalarga asoslanishi va shu yuksak maqsadlarni amalga oshirishga safarbar etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, talabalar qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda tasviriy san'at mashg'ulotlari, ekskursiyalar, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, mavzu mazmuniga bog'liq holda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berish lozim.

1.1. Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maqsadi.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakillantirishga qaratilgan.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida, dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladidi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan mo'zey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida Ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o'z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diogrammalar, eskizlar orqali so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'z g'oya va fikirlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin, bu maktablarda tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni bildirmaydi. Maktablar o'z nomiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan umumiy, elementar bilim va malakalar berishni vazifa qilib quyadi. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktablari rassomlarni tayyorlamaydi, iqqidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug'ullanishni nazarda tutmaydi. Rassomlar tayyorlash, iqqidorli bolalar bilan ishlash maktab to'garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida haddan ziyod, bolalarni qiynab qo'yadigan, ortiqcha zuriqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to'g'ri emas. Maktablarda tasviriy san'atdan beriladigan elementar bilim va malakalarga yarasha o'qitish metodlarini qo'llash zarur bo'ladi. Biroq tasviriy san'atdan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida qo'llanilayotgan o'qitish metodlarining ayrim jihatlaridan foydalanish inkor

etilmaydi. Shuningdek ulardan to`laligicha umumiy o`rta ta`lim maktablarida foydalanish ham pedagogik jihatdan to`g`ri emas.

Maktabda tasviriy san`at mashg`ulotlarining vazifalari haqida to`xtalganda ularni shartli ravishda ikki qisma bo`lish mumkin:

1. Tasviriy san`at darslarining o`ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, tushunish va qadirlashga o`rgatish; estetik va badiiy didni o`stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san`atning nazariy asoslari (yorug`soya, rangshunoslik perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementar malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik ko`rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakko`rni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me`morchilik san`at asarlarini tushungan holda o`qiy olishga o`rgatish; san`atga nisbatan qiziqish uyg`otish, uni qadirlashga, sevrishga o`rgatish.

2. Tasviriy san`at darslarining qo`shimcha vazifalari, ular; borliqni, hayotni bilishga kumaklashish; milliy g`urur va milliy istiqlol mafko`rasini amalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparfarlik baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarlarga yo`llash.

Tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to`xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o`qitiladigan deyarli barcha o`quv predmetlari bilan bog`lanadi va ular yuzasidan materillarni o`zlashtirishga samarali ta`sir ko`rsatadi. Ayniqsa, u o`qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik biologiya, tarix matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san`at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo`lsada, u axloqiy mehnat, ekologik jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Har qanday o`quv predmeti ta`lim mazmunida, albatta, o`zbek xalqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma`naviy merosni o`ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o`zbek xalqining dunyoga mashhur bo`lgan me`morchilik amaliy va tasviriy san`at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o`rgatilishi talab etiladi. Shu bilan birga maktablarda ta`lim mazmunining viloyat va shaharlar bo`yicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Chunki, O`zbekistonning viloyat, shahar, hattoki qishloqlarida amaliy san`at va me`morchilikning rivojlanishida o`ziga xoslik bor. Buni Buxoro, Samarqand, Kattaqurg`on, Rishton, Shahrisabiz, Nurota, Marg`ilon, G`ijduvon, Urgut, Xujayli va boshqa shaharlarning san`atida ham yaqqol qurish mumkin.

Milliy san`atimiz bizning fahoimiz, uni biz keng o`rganishimiz tabiiy qoldir. Lekin, jahonda hamma xalqlar tomonidan tan olingan umum insoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud. Ularni o`quvchilarga o`rgatmasdan turib, xalqimiz jahon madaniyatida o`z o`rnini topa olmaydi. Aks holda, o`quvchilarimiz milliy qobiqqa uralashib qolib, jahon durdonalaridan bahoamand o`rgan olmay qoladilar. Shuni alohida qayd qilish lozimki, ko`p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz (tasviriy san`at, dekorativ-amaliy san`at, me`morchilik san`ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o`quvchilarga tasviriy va amaliy san`atdan beriladigan malakalarni unitmasligimiz zarur.

Maktabda tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirga yo`naltirilgan asosiy o`quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo`nalishlarda amalga oshiriladi:

- o`quvchilarning tabiat, san`at va hayotdagi go`zalliklarni idrok etishga o`rgatish;

- o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go`zallikni xunik voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;

- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, xatti – harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish;

- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boyitish.

Tasviriy san`at o`quv predmeti o`z xarakteriga ko`ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idroq estetik zavq, estetik his-tuyg`u, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o`stirishda katta rol o`ynaydi. dekorativ kompozitsiya darslarida o`quvchilar naqshlar, amaliy san`at buyumlaridagi go`zalliklarni his qiladilar o`zlari ham shunday kompozitsiyalar to`zishga harakat qiladilar. Shu maqsadda, bolalarga xalq amaliy san`ati namunalari ko`rsatiladi, ularning shakl va ranglarini tahlil qilib beriladi. O`quvchilar o`zbek va qardosh xalqlarning naqshlarini kuzatish va o`rganish orqali ularning shakl va ranglaridagi go`zalliklarni, shakl va ranglarining garmonik birligini tushunadigan o`rgandilar. Ming yillar moboynda ustadan – ustaga, qo`ldan – qo`lga utib, har jihatdan takomillashib, go`zallashib borgan xalq san`ati namunalari bolalarni hayratga soladi va ularda tajribali ustalar kabi ifodali san`at asarlari yaratish ishtiyoqi paydo o`rgandi. Gullar, hayvonlar va parrandalarni natura sifatida kuzatish va tahlil qilish jarayonida o`qituvchi ularning to`zilishidagi shakl rang, o`lchovlari, harakatlaridagi nafosatni qayd qiladi.

O`quvchilarni tabiatdagi narsalarning erkin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular o`rganklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi tulqillantiradi. Tabiatdagi gullarning rang shakllarining turli-tuman bo`lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning yengil parvozi, bahorgi va ko`z manzaralarining chiroyi, majnuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilovlanishi, uy derazalarining kechgi miltillab ko`rinishi hayojonlantiradi. Bolalarda bunday his – tuyg`uning usishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholash malakalarining shaklanishiga olib keladi. Bolarning faoliyatlarida obrazli iboralarning, ya`ni “xushbichim”, “quvonchli”,

“bayramdagidek” ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O`quvchilarni estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammasining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida e`tibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas balki ularni ko`ra bilishlariga, tevarak-atrofdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o`rgatiladi.

Tasviriy san`at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning to`zilishi, shakl, o`lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o`rganadilar va ularni o`z ishlarida tasvirlaydilar. Ko`zatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvonga ega o`rgandilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi va kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Ijodkorlik ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchdir. Shuning uchun ham jamiyatimizga robotsimon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabuskor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko`p jihatdan ana shunday kishilarga bog`liq. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko`zda tutilmagan har qanday vaziyatlarda muammoni tez va oson yechimini topa oladigan kishilar xalqimizning taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradilar.

1.2 Tasviriy san`at mashg`ulotlarining boshqa fanlarni o`qitishdagi ahamiyati.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g`oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o`ziga xoslikni ruyobga chiqishga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar olimlar uchungina emas, balki hama sohada ishlovchilar (injenermi, vrachmi, dehqonmi, nonvoymi v. b) uchun muhimdir.

O`quvchilarning ijodkorligi esa ko`proq bolalarda diqqat va tasavvorni o`stirishi bilan bog`lanadi. O`quvchi ayniqsa, boshqa sayoralar, suv osti dunyosi, afsonaviy hayvonlar (dev, kengtavr, suv parisi, dengiz shoxlari v.b)

bilan bog`liq bo`lgan rasmlar ishlaganda tasavvo`rni kuchli ishga solmasdan turib topshiriqni samarali hal qilolmaydi. qolaversa har bir ijodiy ishni tasavvursiz va diqqatsiz yechib bo`lmaydi. Shuningdek bu masala bolalarda his-hayajonni rivojlantirish bilan bog`liq. Ma`lumki, bolalar nihoyatda hayajonga boy o`rgandilar. Bolalarni narsalar tasviridagi turfa rang va shakllar, real va afsonaviy obraz va ko`rinishlar, voqea va hodisalar larzaga soladi, ularni tulqillantiradi.

Tasviriy san`at o`quv predmetining muhim vazifalaridan biri, u bolalarda kuzatuvchanlikni o`stirish, borliqni ko`ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma`lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborot- larning deyarli 90 foizidan ortig`ini ko`z orqali oladi, qolgan 10 foizini qo`loq, burun, og`iz v.b. a`zolar orqali o`zlashtiradi. Bundan ko`rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko`z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg`ulotlarida, Shuningdek naturadan tasvirlash, san`atshunoslik asoslari mashg`ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o`quvchilar narsalar va hodisalarning to`zilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, fazoviy joylashuvi, harakat go`zalligini ko`zatadilar hamda ularni o`z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar. Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavo`rga ega o`rgandilar.

Tasviriy san`at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari asarlarini o`qishga o`rgatishdir. Tasviriy san`at asarlari ertaq hikoya, doston, roman kabi Ma`lum bir mazmunni aks etiradi. Biroq uni kitob o`qigandek o`qib bo`lmaydi. Tasviriy san`at asarlarini o`ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o`qiy oladilar. Xususan rassomlar chiziqalar, ranglar, o`lchovlar, kompozitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yoyordamida asar mazmunini ochib beradilar. Bu borada shuni alohida qayd qilish lozimki, san`at asarlari, ayniqsa, tarixiy, turmush janrlaridagi asarlar, ayrim xalq va mamlakatlar haqida tula-tukis va

keng hamrovli Ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bularni o'qiy olgan shaxslargina asarlarda ilgari surilgan g'oyalarni, tasvirlangan mazmunni chuqur idrok eta oladilar. Shuningdek ular asarning badiiy qiymatini aniqlay oladilar. Shu bilan bir qatorda asardaki go'zalliq ko'tarinkilik, qahramonlik kabi sifatlardan mamnunlik va zavqlanish hosil qiladilar.

Shuni yaxshi bilish lozimki, badiiy madaniyat asarlaridan hisoblangan tasviriy san'at, bu bolalarning kungil ochuvchi o'quv predmeti emas, balki bolalarga ijodkorliqni, tafakkorni badiiy-estetik didni, fahm-farosatni o'stiruvchi, shuningdek kuzatuvchanlik va hayotni bilishga o'rgatuvchi o'quv predmetidir. Tasviriy san'at ijodiy ishlar jarayonida o'z vazifalarini bajara borib bolalarga qalb ko'tarinkiligini olib keladi, ularing badiiy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

II-BOB. Maktabda badiiy bezash ishlarining mazmuni maqsad va vazifasi.

Tasviriy san'atning barcha turlari kabi maktabdagi badiiy bezak ishlarida xam kompozitsiyaning umumiy konuniyatlaridan kelib chikib ish yuritiladi. Shuning uchun xam bu ishlar bezakchi rassomdan yetarlicha bilim va malkalarni talab markazida tutishni takozo etadi.

Kompozitsiya lotincha «Rompocitiye» - tuzish, joylashtirish ma'nosini beradi. Maktab badiiy bezash ishlarida kompozitsiyaning asosan uchta: 1 - tekis, 2-xajmli, 3-kenglik, chuqurlikka ega bulgan turlari mavjud. Frontal kompozitsiya-bu ikki koordinatalari buyicha frontal tasvirni tashkil etishdir. Bunda kompozitsiya elementlari deyarli bitta-frontal tekislikda joylashadi. Kurgazmali stendlar, devoriy gazetalar, taklifnomalar, tabriknomalar, devordagi bezaklar, pannolar frontal kompozitsiya asosida bajariladi. Frontal fransuzcha «Frontale» - yassi, ruparadagi degan ma'noni anglatadi.

Xajmli kompozitsiya turli kurish nuktalaridan idrok kilishga muljallangan uch ulchovi formada buladi. Bunda kompozitsiya elementlari uzaro uyg'unlashib, bir butun xajmini tashkil etadi. Shaklli xar xil pannolar, yodgorliklar, guldona kompozitsiyasi, monumental kompozitsiya va boshkalar bunga misol bula oladi.

Kenglik-chuqurlik kompozitsiyasi-tomoshabin xarakatda bulgan vaktida idrok etishga muljallangan forma va elementning uyg'unligidir. Bunda kompozitsiya elementlari uyg'unligi fazoviy va masofaviy ko'rinish beradi. Interyerda tashkil etilgan kurgazmalar, koridorlarning bezalishi, yulaklar buylab tashkil kilingan kompozitsiyalar va boshka bunga misol bula oladi.

Kompozitsiya elementlari uzaro garmonik uynlikda bulib, bir birlarini tuldirib turishlari kerak. Kompozitsiya elementlari joylashishi ta'sir xususiyatiga kura kompozitsiyalar 3 xil buladi: 1 - statistik, 2 - ritmik, 3 - dinamik. Statik kompozitsiyada elementlar joylashishi turgun, osoyishta kurinishga ega buladi. Elementlar piramidal yoki kub, parallilepiped kurinishida joylashadi.

Ritmik kompozitsiyada elementlar ma'lum ritm, takrorlanish kurinishida joylashadi. Bu kompozitsiya tekis xarakter xissini beradi.

Dinamik kompozitsiya kurilishi dinamik, shiddatli sxemalarga asoslanadi. Elementlar joylashishi portash, shiddat xissini beradi. Ba'zan keskin xarakter yunalishini kursatib turadi, ba'zan yukoriga ushish, parvoz tassavurini beradi.

Kompozitsiya elementlari uzaro teng kuchli yoki birlari ikkinchisiga buysondirilgan bulishi, ya'ni asosiy va yordamchi elementlardan tashkil mumkin. Asosiy element kompozitsion markaz xisoblanib, boshka elementlarni uziga birlashtiriladi. Agar kompozitsiya elementlari bir birlariga nisbatan bir xil, joylashsa, ular kompozitsion muvozanatda buladi. Shunga kura kompozitsiya simmetrik yoki assimetrik bulishi mumkin.

Maktab bidiiy bezak ishlarida kompozitsiyaning kerakli turidan kerakli joyda foydalanish, kompozitsion muvozanatga rioya kilish muxim axtamiyatga ega.

GRAFIKA

Inson san'atning grafika turiga kundalik hayotda duch keladi. Grafika orqali hayotiy rejalarini belgilab oladi, bo'layotgan, bo'ladigan voqea va hodisalarni bilib oladi. Inson kucha bo'ylab ketayotganida turli xildagi plakat, reklama, e'lon, afisha chaqiriqlar uning diqqatini o'ziga tortadi. Bularsiz bugungi kun voqealarini to'la bilib bo'lmaydi. Gazeta, jurnal, kitoblardagi yozuv va rasmlar — bularning hammasi voqelikni to'liq tushunishga, ularning mohiyatini, mazmunini obrazli tasavvur qilishga xizmat qiladi. Grafika san'ati shunchaki informatsion san'at emas, u kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi, ko'tarinki ruhda yashashiga xizmat qiladi. CHiroyli ishlangan tabrik xat va yozuvlar, nafis plakatlar hayyotga o'ziga xos go'zallik kiritadi. Ular ishlanishi, o'rinli tanlangan rang kompozitsiyasi, chiziq plastikasi, yuksak professional mahorati bilan kishiga quvonch baxsh etishi bilan birga inson tafakkurining qudratidan zavqlanishga da'vat etadi. Xullas, grafika san'ati san'atning boshqa turlari singari o'zida fikr va his-tuyg'ularni mujassamlashtirgan, inson uchun

xizmat qiladigan, uning his-tuyg'u, orzu-istaklarini ko'rgazmali shakllarda ifodalaydigan publitsistik san'at bo'lib, jamiyat taraqqiyotida doim olg'a boruvchi, boshqalarni ham oldinga yetaklovchi san'at sifatida e'zozlanib keldi va shunday bo'lib qolmoqda. «**Grafika**» iborasi tasviriy san'at turi sifatida XIX asrga kelib keng qo'llanila boshlangan. Bu vaqtgacha esa bu ibora asosan yozuvlarga (harf va poligrafiyaga) nisbatan qo'llanilgan. Uning yunoncha «grafo – «yozaman», «chizaman», fransuzcha «grafiguye – «chiziqli» so'zlaridan kelib chiqqanligining boisi ham shundadir. Hozirgi kunda esa grafika tushunchasi katta mazmuni qamrab olgan. Biz grafika san'ati deganimizda oddiy qalamda voqelikni tasvirlagan suratdan tortib, to katta-katta plakat va pannolarni, turli xildagi taklif bileti va teatr programmalari, teatr-kino afisha va reklamalarini, etiketka va markalarni, kitob, gazeta, jurnallarga ishlangan bezak va tematik kompozitsiyalarni nazarda tutamiz. Grafika san'atiga xos bo'lgan xususiyat voqelikni turli uzunlik va qalinlikdagi chiziq yoki oq, qora, bo'yoqlar yordamida ifodalashdir.

Rassom shu ifoda vositalari orqali o'z maqsadini tasvir etish imkoniyatiga qarab predmetlarning o'ziga xos xususiyati – konstruktiv qurilishi, yuzasining fakturasi, fazoviy o'rni va boshqa tomonlarini, kishi psixologiyasidagi o'zgarishlarni, xarakterini, yoshi, kasbi va hokazolarni ochib bera oladi.

Grafika san'atining turlari va ko'rinishlari ko'p. Ularning nomi shu rasmlarning ishlatilish o'rni, mazmuni va ishlanish texnikasi bilan bog'likdir. Grafika san'atini ishlanish texnikasi jiqatidan ikkiga bo'lish mumkii:

1. Qo'lda ishlangan rasmlar.
2. Bosma rasmlar.

Qo'lda ishlangan rasmlarga qalam, ko'mir tayoqcha, mo'yqalam, pero va shunga o'xshash asboblarda bevosita yuzaga (ko'p hollarda qog'oz sathiga) ishlangan chiziqli rasmlar, shuningdek bo'yoqlar bilan ishlangan (lekin bo'yoqlar soni chegaralangan) rasmlar kiradi. Lekin bunday rasmlarda ham

grafika san'atining o'ziga xos tomoni, ya'ni chiziq hamda yorug'-soya vositasi va kombinatsiyasi yetakchi o'rinni egallaydi.

Bosma rasmlarga esa dastlab biror yuzaga (masalan, linoleum, yog'och, tosh, metall va hokazolarga) ishlanib, keyin qog'oz sathiga ko'chirilgan suratlar kiradi. Bu suratlar qanday materialdan ko'chirilganiga qarab turlicha nomlanadi. Masalan, linogravyura, ksilografiya, litografiya, ofort va boshqalar. Bularning xammasini esa bir so'z bilan **gravyura** deyiladi.

Gravyura fransuzcha so'z bo'lib, «o'ymoq» degan ma'noni bildiradi. Odatda gravyura asarlari, yuqorida aytganimizdek dastlab biror yuzaga (yog'och, temir, linoleum, tosh va hokazolarga) o'yib ishlanadi. So'ng undan maxsus asboblari (stanok) yordamida qog'ozga ko'chiriladi. Agar tasvir linoleum yuzasidan ko'chirilgan bo'lsa linogravyura, yog'och taxta yuzasidan ko'chirilgan bo'lsa ksilografiya, tosh, sathidan ko'chirilgan bo'lsa litografiya, temir sathidan ko'chirilgan bo'lsa ofort deyiladi va hokazo.

Bilim yurti va maktab hayotida grafika san'ati katta o'rin tutadi. Turli xildagi diagramma va sxemalar, devoriy va foto gazetalar, chaqiriq, e'lon, plakatlar, maktab albomlari-yu, taklif bileti va tabrik xatlarisiz bilim yurti va maktab hayotini tasavvur kilib bo'lmaydi.

Grafik ishlarni bajarishda harflarning roli kattadir.

Hozirgi kunda har birimiz har bir qadamda harflarga duch kelamiz. Ular orqali o'z fikrimizni qog'ozda aks ettiramiz, boshqalar fikrini uqib olamiz. Biz uchun harflar aloqa vositasi, fikr almashish va bayon etish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Grafika. Bu — lotincha so'z bo'lib, "yozaman, chizaman" degan ma'noni bildiradi va tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri gravyyuradir. "Gravyura" fransuzcha so'z bo'lib, "kesish" ma'nosini bildiradi. Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, yog'och, linoleum, tosh kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qog'ozga ko'p tirajda ko'chiriladi. Metallda tayyorlanadigan

gravyurani ofort, yog`ochdagisini esa ksilografiya, lenoliumdagisini esa linogravyura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi. Grafika asarlarining qo`llanish sohalari nihoyatda ko`pdir. Xususan, estamp, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, (xajviy rasmlar) etiketka va o`rama (upakovka)lar, teatr va kino afishalari, yo`l va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning ish blankalari shular jumlasidadir.



Grafik ishlarni bajarishda harflarning roli kattadir.

Hozirgi kunda har birimiz har bir qadamda harflarga duch kelamiz. Ular orqali o`z fikrimizni qog`ozda aks ettiramiz, boshqalar fikrini uqib olamiz. Biz uchun harflar aloqa vositasi, fikr almashish va bayon etish vositasi bo`lib xizmat qiladi.

Plakat

Kitob grafikasining ilk vatani Sharq hisoblanib, XV XVII asrlarda bu sohada Sharq musavvirlaridan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzaxib, Muhammad Murod Samarqandiy, Sulton Muhammad, Qosim Ali Abdullo kabilar shuhrat qozongan bo`lsalar, XX asrda O`zbekistonda: I.Ikromov,

V.Kedrin, O.Osheyko, Q.Basharov, T.Muhamedov, I. Kriakidilar sermahsul ijod qildilar.

qat



Plakat.

Bolalar tinchlik istaydilar.

Grafikaning o'ziga xos xususiyatlaridan: yana biri bu — uning katta o'lchamda bo'lmasligi va bo'yoqdar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham grafika asarlarida fanchiziq yoki to'q rangli tasvir ishtirok etadi. Ba'zan grafik tasvirlar ham rangli bo'ladi.

Ayrim grafika asarlari katta o'lchamda va ko'p nusxada tayyorlanadi, hamda katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Bu plakatlardir

Grafika san'atida estamp ham katta o'rinni egallaydi. "Estamp" fraitsuzcha so'z bo'lib, "shtamplash" ma'nosini bildiradi.

Estamp yaratish uchun avalo tasvir maxsus asboblari bilan qattiq materialga (tosh, yog'och, linoleum) o'yish orqali tushiriladi. So'ngra o'yilgan material ustiga bo'yoq beriladi va undan qog'ozga tasvir olinadi.

Estamp uchun shu narsa xarakterliki, unda gravyura bosmadan chiqqanidan so'ng rassom unga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi va asar tagiga o'z imzosini qo'yadi.

Grafika texnikasining keng tarqalgan turlaridmm yana biri bu — illyustratsiyalardir. Qadim-qadimdan tasviriy san'at kitob bezagi bilan chambarchas bog'langan holda rivojlangan. O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarida yaratilgan kitoblarniig deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmuni o'z aksini topar edi. Keyinchalik, kitob bosish dastgohlari ixtiro qilinganidan so'ng, illyustratsiyalar

kitoblarda yanada katta o`rin egallay boshladi. Illyustratsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo`lishiga yordam beradi, ikkinchidan adabiy obrazlar-timsollarni aniq va jonli bo`lishiga, o`quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga xizmat qiladi (9-rasm).

Rassom biror bir adabiy asarga illyustratsiya ishlashga kirishishdan avval, mazkur asarni yaxshilab o`rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqea sodir bo`layotgan davrga doyr materiallarni ham to`plashi, o`sha davr odamlarining madaniyati va turmushini, mamlakat tabiatini bilib olishi kerak bo`ladi.

Karikatura ham grafikaning bir turi hisoblanadi. Unda hayotdagi ayrim salbiy hodisa va ko`rinishlar, shaxslar hajviy yoki hazil tarzda rasmlar orqali tanqidiy tasvirlanadi .

Grafikaning reklama, afisha, etiketika, o`rama (upakovka) kabi turlari ham keng tarqalgandir. Gazeta, jurnal grafikasi ham shriftlar bilan bog`liq bo`lib, amaliyotda keng qo`llaniladi O`tgan asrning 60 yillarida o`zbek grafik rassomlari milliy tasviriy san'atning badiiy an'alarini davom ettirib, yuksak badiiy saviyadagi asarlarni yaratgandilar. Shunday rassomlardan biri I.Ikromovdir. rassom tomonidan A.Navoiyning "Lirika" nomli to`rt jildlik she'rlar to`plamiga ishlangan rasmlar rassom ijodining gultoji hisoblanadi. Bu ish 1960 yilda Toshkentda Markaziy Osiyo rassomlarining hududiy konferentsiyasi munosabati bilan ochilgan ko`rgazmada e'tirof etilib, yuksak taqdirlangan. Kitobning muqova jildi nihoyatda original va betakror bo`lib chiqqan. Undagi tovus tasviri asarga mos lirik xususiyat kasb etadi. Muqova yuzasidagi grafik belgilarining bir tekisligi, tovus tasvirining nafis ranglar bilan ifodoishishi, qushning orqa tomonidagi rango-rang bo`yoqlar bilan berilgan gul shakli shuningdek, qizil rangda yozilgan kitob nomi ishning yuqori badiiy saviyasini ta'minlagan.

O`zbek kitob grafikasi sohasida samarali mehnat qilgan rassomlardan yana biri Telman Muhamedovdir. Bu o`ziga xos rassom asosan o`zbek xalq

ertaklariga nihoyatda jozibali illyustratsiyalar ishlab, katta shuhrat qozondi. Uning eng muvaffaqiyatli ishlaridan biri "Nasriddii Afandi haqidagi latifalar" nomli kitobga ishlagan "Eshakni o`qishga o`rgatish" nomli illyustratsiyasidir



. X. Rasulov. .
Choyxo`r. karikatura..



T.Muhammedov.O`zbek xalq ertagi



Plakat ishlovchi rassomlar rasmni badiiy ifodalay olish jihatidan mohir bo‘lish bilan birga, hayotni, siyosat, ijtimoiy turmushni yaxshi biladigan, dunyo qarashi keng, chuqur mushohada qila oladigan, siyosiy jihatdan yetuk bo‘lishi kerak.

Chunki, plakat san’ati – odamlar diqqatini o‘ziga jalb eta oladigan ifodalanayotgan tasvir asosida biron-bir xulosaga kela oladigan, kishilarni ta’sirlantirib, hayajonga sola oladigan darajada bo‘lishi kerak (7- a, b rasmlar).



“YORDAM BERING”

Amaliy grafika – tabriknoma, telegrammalar, konvert yuzasidagi tasvirlar, etiketkalar, markalar, tasvirdagi ramzlar uchun ishlangan rasmlardan iborat bo‘ladi. Bu ko‘proq narsalarni bezatish uchun ishlanadigan grafik tasvirlarda o‘z ifodasini topadi.

Bu tasvirlar ijtimoiy hayotni muhim masalalari va vazifalarini targ‘ib qilish, omma uchun foydali maslahatlar, ko‘rsatmalar bera oladigan, davlat chaqiriqlarini xalqqa yetkazishda muhim omil hisoblanadi.



Badiiy bezak grafikasi

Tabrik, esdalik xatlari (adreslar) biror muhim voqea va hodisalarni nishonlash uchun alohida shaxs yoki tashkilotga takdim etiladi. Ular bir kishi, kollektiv hamda tashkilot nomidan yozilishi mumkin.

Adres ko'pincha 30X40 sm formatdagi qog'ozga yoziladi. Bu qog'ozning keng tomoni ikkiga buklanadi va uning ichki tomonining o'ng yog'iga tekst yoziladi. Tekstni yozishda initsiallardan³ ham foydalanish mumkin. Qog'oz ichki betining chap tomoniga esa adres mazmuniga mos tasvirlar ishlanishi yoki

³ *Инициал* - текстдаги биринчи сўзнинг бош ҳарфини бўрттириб кўрсатилишидир.

sanaga aloqador raqamlar yozilishi mumkin. Ba'zi hollarda qog'oz ichki betining ikki tomoniga ham tekst, tashqi tomonining birinchi betiga esa tasvir ishlanishi va yubileyga oid raqamlar yozilishi mumkin.


Adresni ishlashda uning boshqa formalaridan ham foydalanish mumkin. SHunday formalardan biri o'ralgan qog'oz shaklidagi adreslardir. Bunday adreslarni ishlash uchun pergament yoki yaxshi sifatli qog'oz olinadi. Uning formati 1:2,5, 1:3 nisbatda bo'lishi mumkin. Bu adresning pastki tomonidan 2 – 2,5 sm kenglikdagi qismi bir-ikki marta buklanadi va undan taxminan 1 sm kenglikdagi rangli tasma o'tkaziladi va qog'ozning tashqi tomonidan chiqariladi hamda undan o'ralgan adresni boylab qo'yish uchun foydalaniladi.

Yozilgan adreslar silindrik qutilarda saqlanadi. Bu qutining tashqi ko'rinishi ham adres mazmuniga yarasha bezalishi mumkin.

Harflar va so'zlar yozish

Harflar turli xil chiziqlar birlashmasidan tashkil topgan bo'lib, bu chiziqlar harf elementlaridir. 54-rasmda harf elementlarining nomlari berilgan.

Harf tuzilishining asosiga yozma harflarning yozish uslubi olingan. Harfni yozishda pastga tushuvchi chiziqni (yozma harf misolida) harfning asosiy chizig'i, pastdan yuqoriga chiquvchi chiziqni esa birlashtiruvchi chiziq deb ataymiz. Bosmada ishlatiladigan harflarning ko'pchiligining past va yuqori tomonida gorizontol holda joylashgan element bo'lib, buni kertik deb yuritiladi. Kertikning shakli turli xilda bo'lishi mumkin.



Hozirgi kunda ishlatiladigan harf turlari juda ko'p. Rassomlar esa


harflarning yangi ko'rinishlarini yaratish ustida ish olib bormoqdalar. Biz kundalik matbuot sahifalarini, turli kitob va jurnallarni kuzatsak, ularda ishlatilgan harflarning ko'rinishlari bir-biriga o'xshamasligini sezamiz, lekin hamma harflarning asosida qandaydir o'xshashlik bor. Bu o'xshashlik harf tuzilishidadir. Bosmada ishlatiladigan harflar, asosiy va birlashtiruvchi chiziqlarining bir-biriga nisbatan yo'g'on-ingichka bo'lishiga, kertiklarining bo'lish-bo'lmasligiga, uning shakl tuzilishiga qarab 5 gruppaga bo'linadi

I guruhda harflarida asosiy va birlashtiruvchi chiziqlarning qalinligi o'rtasidagi nisbat taxminan 1:3 ga teng bo'ladi, ya'ni asosiy chiziqning yo'g'onligi 3 bo'lsa, birlashtiruvchi chiziqning yo'ronligi unga nisbatan 3 marta ingichka bo'ladi. Asosiy chiziq bilan gorizontall kertiklar orasidagi burchak dumaloq qilib olinadi va kertiklarining ko'rinishi uchburchakka o'xshash bo'ladi.

II guruh harflarda asosiy va birlashtiruvchi chiziq orasidagi nisbat taxminan 1:5 va undan ham katta bo'lishi mumkin. Uning kertiklari uzun va ingichka bo'ladi, kertik va asosiy ustun orasidagi burchak sezilmaydi, ba'zida bo'lmasligi ham mumkin.

III guruh harflaridagi asosiy va birlashtiruvchi chiziqlar qalinligi orasidagi nisbat bir-biridan oz farq qiladi va bu taxminan 1:2 ga (ya'ni asosiysi 2, birlashtiruvchi 1) teng bo'lishi mumkin. Kertiklari deyarli to'rtburchakka o'xshash bo'ladi.

IV harflari brusokli harflar deyiladi. Bu harflarning xususiyati asosiy va birlashtiruvchi chiziqlar qalinligi orasida farq bo'lmasligi, bo'lganda ham juda sezilmasligidadir. Ularning kertiklari to'rtburchaksimon bo'ladi.



Harflarning kontrastligi

V guruh harflari kesma harflar deyiladi. Bu gruppadagi harflarda asosiy va birlashtiruvchi chiziq qalinligi o'rtasida farq deyarli bo'lmaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan harf gruppalarini harf garnituralariga bo'linadi. Bunday holda harf gruppalaridan biriga kirgan harflarning ko'rinishi, tuzilishi o'zgarmagan holda uning hajmi katta yo kichik bo'lishi mumkin.

Har bir harf garniturasini bir necha ko'rinishda bo'ladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Harflar o'z ko'rinishi jihatidan tik, og'ma, kursiv holda bo'lishi mumkin. Agar harf og'ma holda ishlanadigan bo'lsa, uning uchun tanlangan burchak ixtiyoriy bo'lib, bu burchak ishlatilish o'rniga qarab belgilanadi.

2. Har bir harf tik yo og'ma bo'lishidan qat'i nazar, o'zining ma'lum o'lchamlariga ega bo'ladi. Odatda normal harflar enining balandligiga nisbati 2:3 yoki 3:5 bo'ladi. YA'ni harf eni 2 bo'lgani holda uning balandligi 3 bo'ladi. YOzish protsessida esa ba'zan bu ko'rsatilgan o'lchamdan chekkaga chiqish ham mumkin. Harf eni harf balandligiga teng bo'lishi ham mumkin yoki eni balandligiga qaraganda juda tor bo'lishi ham mumkin. Bu holda harf ko'rinishi ham o'zgaradi. Demak, harf ko'rinishining o'zgarishida nisbatlar muhim bo'lib, yozish vaqtida uni hisobga olish kerak bo'ladi. Harfga kerak bo'lgan nisbatni tanlash yoziladigan tekst va tanlangan qog'oz formatiga, harf kompozitsiyasining yechilishiga bog'liq bo'ladi. Agar yozish protsessida harflarning eni normal harf eniga nisbatan kichikroq olinsa, u holda harf ko'rinishi ingichka va uzun bo'lib ko'rinadi. Bunday harflarni toraytirilgan harflar deyiladi.

Normal harflar eniga nisbatan kattaroq olinsa, u holda bunday harflar kengaytirilgan harflar turkumiga kiradi.

3. Normal harflarda asosiy ustun chizig'ining yo'g'onligi butun harf balandligining 7 dan yoki 8 dan bir qismini tashkil etadi. Bu nisbat ham cheklangan emas, albatta. Bu nisbat harf kompozitsiyasining yechilishiga qarab 1(2-1) 1,1:2 yoki 1:1 atrofida bo'lishi mumkin. Bu tanlangan nisbatga qarab

harf ko'rinishi ham o'zgaradi. Agar harf ustunining kengligi balandligiga nisbatan juda kichik olinsa, masalan 1/10, bu nisbatda bajarilgan harfning ko'rinishi yengil va ochiq bo'ladi, agar harf asosiy ustunining kengligi harf balandligining, aytaylik 1/4 qismini tashkil etsa, bu holda harf ko'rinishi to'q va salobatli bo'lib ko'rinadi. YUqorida sanab o'tilgan gruppalar bilan harf turlari tugamaydi. Harflarning ko'rinishi, ishlatish o'rni, uning materialiga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan, qo'l mashinkalarida qo'llaniladigan harflar badiiy, hajmli, trafaret va hokazo ko'rinishda bo'ladilar.

IV-V guruh harflari o'z tuzilishi bilan sodda, har qanday dekorativ elementlardan xoli, oson yozilishi, uzoqdan tez va osoy o'qilishi bilan I-III gruppalar harflaridan farq qiladi. Shuning uchun ham bu harflar tashviqot ishlarida keng qo'llaniladi va plakat harflar deb nomlanadi.


Harf va so'zlar yozishni o'rganishni V gruppalar harflaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu gruppalar harflarida ortiqcha dekorativ elementlarning bo'lmasligi, asosiy va birlashtiruvchi chiziqlar yo'g'onligining bir xil bo'lishi va oson yozilishi harf yozishni o'rganuvchiga ma'lum yengilliklar tug'diradi.

Harf yozishni o'rganishni dastlab kataklar yordamida amalga oshirish yaxshi natijalar beradi. Buning uchun qog'ozda katak (to'r) chizib olinadi. Harfning asosiy va birlashtiruvchi chiziqlari bir-biriga teng bo'lganligi uchun chizilgan katakda ular uchun bir katakdan joy qoldirilib harf yozishga o'tiladi). Masalan, «P» harfini yozish kerak bo'ldi, deylik. Buning uchun harf balandligi uchun 5 katak, eni uchun esa 3 katak ajratamiz, harfning asosiy va birlashtiruvchi chiziqlari uchun bir katakdan ajratib chiziqlar chizsak, bizga kerak bo'lgan «P» harfi hosil bo'ladi. SHundan so'ng keraksiz chiziqlarni o'chirib tashlaymiz, harf ichini esa kerak bo'lgan rangga bo'yaymiz.

Alfavitdagi boshqa harflar (b, v, g, ye, z, i, k, l, n, o, p, r, s, t, u, ch, e, ya, o', z) ham xuddi shu tartibda yoziladi. J, sh, yu harflarining eni uchun 5, m, a, f, d harflarining eni uchun 4 katak ajratiladi. (Lekin bu o'lchashlar qat'iy emas, ishlatilish joyiga qarab topqoq yoki kengroq olish mumkin.) Dumli harflar (g',


q, h, s)ning pastga va yonga chiqadigan elementlari uchun yarim katak qalinlikda o'rin beriladi. Yozilgan hamma harflarni kuzatsak, ularning kengligi bir xil emasligini sezamiz. Shuning uchun ham alfavitdagi hamma harflarni shartli ravishda o'rtacha (n, p kabilar.) va keng (yu, sh kabilar) harflar deb yuritiladi.

To'rtburchak yoki kvadrat ichida harf yozish uchun dastlab harf uchun nisbat tanlab olinadi va shu asosda to'rtburchak chiziladi.



Masalan, olgan nisbatimiz, ya'ni harfning eni va balandligi 5:3 ni tashkil etadi, deylik. Shunga binoan to'rtburchak chizib olamiz. SHundan keyin harf ustunlarining kengligini aniqlaymiz. Harf asosiy ustunining kengligi uning balandligining beshdan bir bo'lagini tashkil etadi. Yozmoqchi bo'lgan harfimiz V gruppaga mansubdir, shuning uchun asosiy va birlashtiruvchi chiziqlarning kengligi bir-biriga teng bo'ladi. Natijada harfning balandligi 10 *sm*, kengligi 6 *sm* bo'lgan o'lchovlar hosil bo'ladi. Chunki qabul qilingan nisbati 5/3 ga teng. Harf asosiy ustunlarining va birlashtiruvchi chiziqning kengligi 2 *sm* ga teng

bo'ladi. Harf chizib olingach, ortiqcha chiziqlar o'chirib tashlanadi va harf ichi kerak bo'lgan rangga bo'yaladi. Alfavitdagi qolgan boshqa harflar ham xuddi shu usulda bajariladi. Keng harflarni yozishda kvadratdan foydalanish mumkin, lekin harf elementlarining kengligi hamma harflarda (normal va keng harflarda) bir xil bo'ladi. To'rtburchak ichida harf yozishda nisbat tanlash muhim bo'lib, tanlangan nisbatga qarab harf shakli ham o'zgaradi. 57-rasmda tanlangan nisbatga qarab harf shaklining o'zgarishi ko'rsatilgan.



IV guruh harflarini yozish ham V grupp harflarini yozishga o'xshab ketadi. Faqat bu grupp harflari kertiklarining borligi bilan kesma harflardan farq qiladi.

I – III guruh harflarini yozish bir oz murakkab bo'lib, unga IV – V guruh harflarini yozishni o'zlashtirib olingandan keyin o'tiladi.

Bu guruh harflarini o'rganishda berilgan namunadan ko'chirib o'rganish yaxshi natijalar beradi Turli xil va ko'rinishdagi badiiy (soyali, hajmli, trafaret va boshqa) harflar grafik ishlarda keng qo'llaniladi. Badiiy harflarni yaratishda harf konstruksiyasining buzilishiga yo'l ko'ymaslik lozim. Harfga haddan tashqari ko'p dekorativ elementlarning kiritilishi yozuv ishlariga salbiy ta'sir etadi va uni yozishni murakkablashtirib yuboradi.

Badiiy harflarni yozib o'rganish uchun harf gruppasidan birortasi tanlab olinadi, uning tuzilishini o'zgartirmagan holda, dekorativ elementlar bilan boyitib boriladi. Harf dekorativ elementlar bilan bezatilganda, bu elementlarning hajmi bir xil kattalikda bo'lishi kerak.



Yozuv ishlarida qo'llaniladigan qurollardan foydalana bilish grafik ishlarining samarali bo'lishida muhim o'rinni egallaydi. Yozuv ishlarida keng

qo'llaniladigan asboblardan biri mo'yqalamdir. U bilan bosma, yozma va badiiy harflar yoziladi.

Mo'yqalamlarning turlari va xususiyatlari haqida mazkur qo'llanmaning 1-qismi 1-bobida «Rasm chizish uchun o'quv qurollari» bayon etilgan.

Plakat perolari harf va raqamlarni yozishda keng ishlatiladi.

Plakat perolari sotuvda nabor holda 2 mm dan tortib 2 sm gacha o'lchovda bo'ladi. Bu perolardan foydalanish uchun ularni o'quvchilarning oddiy ruchkalariga o'rnatiladi. Plakat perolar nihoyatda yumshoq materialdan tayyorlanganligi sababli ularni ishlatishda yuzaga qattiq bosmaslik lozim. Aks holda u tez kunda ishga yaroqsiz bo'lib koladi. SHuningdek, ularni ishlatib bo'lingandan so'ng tezlikda yaxshilab yuvib, tozalab qo'yishni odat qilmoq kerak. SHunday qilinsa, undan uzoq vaqt foydalanish imkoni tug'iladi va u ish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.





Plakat peroda yozishga o'tishdan oldin yoziladigan yuzaga harf yo'li (harf balandligiga teng bo'lgan ikki parallel gorizonta chiziq) chizib olinadi. Bu yo'l ichida harflar o'rni harf grafikasi talablariga javob beradigan holda belgilanadi va har bir to'rtburchak ichiga qaysi harf yozilishi belgilab qo'yiladi. Yozish vaqtida ruchka bir oz chizuvchi tomoniga og'gan bo'lishi va pero yuzaga zich tegib turishi kerak.

Tik chiziqlar chizishda pero yuqoridan pastga, yotiq chiziqlar chizishda esa chapdan o'ngga va turli qiya chiziqlar chizishda pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga harakatlanadi.

Harfning dumaloq qismini yozish 59-b rasmda ko'rsatilganidek bajariladi.

Yoziladigan harfning asosiy va birlashtiruvchi chiziqlari har xil kenglikda bo'lsa, har ikkala chiziq uchun alohida-alohida pero tanlanadi.

Redis deb nomlangan pero kursiv harflarni yozish uchun ishlatiladi. Bu peroning uch qismi doira shaklida bo'lib, u qanday yo'nalishda harakat qilmasin bari bir bir xil yo'g'onlikdagi chiziq chizadi. Bu pero ham oddiy o'quvchilar ruchkasiga o'rnatilib ishlatilaveradi.

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari qo'lda tayyorlangan yozuv

asboblaridan ham foydalanish mumkin. Bular daraxt novdasi, gugurt qutichasining tag fanerasidan tayyorlanadi.

Daraxt novdasidan yozuv tayoqchasini tayyorlash uchun qattik daraxtlar (dub, kayrag'och, tut, behi va h. k.)ning qalam uzunligidagi quruq novdasi olinadi. Uning bir tomoni yassilanadi. Novdaning yassilangan tomonini kerak bo'lgan kenglikda olish mumkin



O'quv-metodik grafika

Maktab o'qituvchisi hayotida o'quv-metodik grafika muhim o'rinni egallaydi. Turli grammatik sxemalar, jadvallar, arifmetikaga doir plakatlar, diagrammalar, o'quv-metodik grafikaning ko'rinishlaridir. Bular dars

samaradorligining oshishiga xizmat qilibgina qolmay, balki bolalarda obrazli tasavvur hosil qilish qobiliyatini shakllantiradi va o'stiradi. SHuning uchun ham bunday ishlar yuzasidan bo'lg'usi o'qituvchining ma'lum bilim va malakaga ega bo'lishi talab etiladi.

*Maktabda o'tkaziladigan darslarning puxta bo'lishida **diagrammalardan** keng foydalaniladi. Maktabdagi ta'lim va tarbiyaviy ishlarda diagramma juda qo'l keladi, u aytilgan fikrning o'quvchiga tezroq borib yetishiga va uning xotirasida uzoq saqlanishiga yordam beradi.*

Diagramma yunoncha so'z bo'lib surat, shakl degan ma'noni bildiradi. Diagramma biror narsa yoki voqeani vaqt o'tishi bilan qancha ko'paygan yoki kamayganini shakllar yordamida aks ettiradi.

Maktabda turli **tematik albomlar** ishlash bolalarning sevimli mashg'ulotigina emas, balki bu albomlar ularning bilimlarini kengaytirishda, biror sohaga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki o'quvchilar biror temaga atab albom chiqarishdan oldin shu temaga mos tushadigan materiallarni ko'rib chiqadilar, adabiyotlar bilan tanishadilar, shu temani o'rganadilar.

Albomning temasi keng va rang-barangdir. U taniqli shaxslarga, tarixda bo'lgan biror muhim voqeaga, respublikamiz tabiati, hayvonot dunyosiga bag'ishlanishi mumkin. Masalan, «Maktabimizdan chiqqan taniqli kishilar» degan temadagi albom ham o'quvchilar uchun ko'p yangiliklar beradi. Bunday temada albom chiqarish uchun o'quvchilar o'z maktablarining tashkil etilganidan buyon qancha vaqt o'tganligini, undan qanday taniqli kishilar yetishib chiqqanligini, ularning ish faoliyatlari, jamiyatimiz uchun keltirilayotgan foydalari to'g'risida ma'lumotlar to'playdilar.

Albomning asosiy materiali fotosurat, turli xildagi grafik tasvirlar, rassom asarlarining reproduksiyalari, har xil arxiv materiallari (matbuotda bosilib chiqqan materiallar, yig'ilish, konferensiyalarning protokollaridan olingan sitatalar va hokazolar) bo'ladi. Bu materiallar albom mazmuniga qarab joylashtiriladi va

material tagiga tushuntirish xati yoziladi. Albomda, bulardan tashqari har xil she'r, laparlar bo'lib, ular albom mazmuniga bog'liq bo'lishi lozim.

Albom muqovasida uning temakasi, kim tomonidan chiqarilayotgani va vaqti ko'rsatiladi. Ba'zan muqova qog'oz bilan o'ralishi ham mumkin va uni supper muqova deb yuritiladi. Bunday holda temaning nomi supper muqovaga ham yoziladi. Supper muqovaga naqsh ishlanadigan bo'lsa, u yozuvning to'g'ri o'qilishiga xalaqit bermasligi kerak.

Albomning birinchi beti titul varag'i bilan boshlanadi. Unda temaning nomi, uni ishlashda qatnashgan o'quvchilarning nomi, shu albomni chikarayotgan tashkilotning nomi, yili ko'rsatiladi. Agar titul varag'i naqsh, vinetka⁴ va tematik rasmlar bilan bezatiladigan bo'lsa, ular tema mazmuni bilan bog'liq bo'lishi, yozuvning tez va to'g'ri o'qilishiga xalaqit bermasligi lozim.

Muqova bilan titul o'rtasidagi varaqda albomning mazmuni bilan bog'liq bo'lgan rasmlar tasvirlanishi mumkin. Buni frontispis deyiladi. Masalan, «Shahrimizning tarixi» temasidagi albomning frontispisi shahar kartasi yoki shaharning eng xarakterli tarixiy yodgorligining rasmi bo'lishi mumkin. Agar albom biror ijodkorga bag'ishlanib chiqarilayotgan bo'lsa, bu holda uning portreta berilishi, bordi-yu albom ikki tilda chiqariladigan bo'lsa, titul ikki betda ham ishlanishi mumkin.

Kitob grafikasi

Kitob tekstining yoki uning bo'limlarining boshlanishi oldidan turli bezak, naqsh va tematik rasmlar tasvirlanadi. Bularni **zastavka** deb yuritiladi. U uzun yoki ingichka qilib, kitob varag'ining o'rtasiga ishlanishi mumkin. Xuddi shunday zastavkalar maktab albomlarida ham ishlatiladi. Zastavka ishlashda rassomlar tomonidan yaratilgan namunalardan ijodiy foydalanish mumkin.


Tekstni yozishga o'tishda birinchi boshlang'ich harf boshqa harflarga nisbatan bir oz kattaroq qilib yozilishi va turli rasm va ranglar bilan bo'yalishi

⁴ Виньетка — безак вазифасини бажарувчк. унча катта бўлмаган композиция.

mumkin. Bu initsialdir **Initsial** lotincha soʻz boʻlib, lugʻaviy maʼnosi boshlangʻich harfdir. Uning vazifasi kitob betini bezatish va uni qiziqarli qilishdir.

Initsiallarning koʻrinishi turlicha boʻladi. U boshqa harflardan oʻz rangi va shakli bilan ajralib turadi. U sodda rasmlar, naqshlar, gullar bilan bezatilishi yoki varaqning butun betidagi rasmlar bilan uzviy bogʻlangan holda tasvirlanishi mumkin.

Tekst tamom boʻlgandan keyin uning tagiga konsovka ishlanadi U zastavkaga nisbatan kichikroq boʻladi. **Konsovka** sifatida turli naqshlar, gullar, emblemalar, kichik-kichik tematik rasmlar, oddiy chiziqchalar, har xil simbolik rasmlardan foydalaniladi. Konsovkalari tekstlarga tugallik beradi, vapaq betini bezaydi.



KITOB ILLYUSTRATSIYASI

Kitob illyustratsiyasi sanʼati tarixini oʻrganish Vatanimiz, uning madaniyati tarixini oʻrganish demakdir. Kitob grafikasi boʻyicha amaliy mashgʻulotlar bu sarfat turining tasviriy sanʼatning boshqa turlari bilan mushtarakligi va tafovutlari, uning tasviriy usullari va vositalarini oʻzlashtirish imkonini beradi. Quyi sinflarda siz oʻzbek xalq ertaklari, H.Olimjon. A.Pushkin kabi adiblarning asarlariga illyustratsiyalar ishlagansiz. Oʻzbek xalq ertaklaridan «Zumrad va Qimmat», «Farrux va Zumrad» ertaklariga, «Alpomish» eposiga, «Semurgʻ» dostoniga. «Afandi latifalari»ga illyustrat-

siyalar ishlangan, shu jumladan, jahonga mashhur O.Disney kompaniyasining bir qator multfilmlarining kadrlari ham ajoyib illyustratsiya namunalari vazifasini o`tashi mumkin. Ular orasida «Qirol sher», «Sohibjamol va maxluq» multfilmlari kattayu kichik tomoshabinlar tomonidan sevib tomosha qilinadi. Ushbu multfilmlar o`zining mazmuni, personajlarining juda chiroyli qilib ishlanganligi bilan sizlarning ham mchringizni qozongan bo`lishi tabiiy. Shuning uchun ularning syujetlari asosida mustaqil kompozitsiya bajarish mashqlari ham zavqli kechadi. Bu ham o`z mohiyatiga ko`ra kitob grafikasiga o`xshab ketadi, ya`ni, syujet asosida illyustratsiya ishlanadi.

Avval ertakning mazmunini xotirangizda tiklab oling. Shunda siz barcha ertaklarda bo`lganidek, unda yovuzlik bilan yaxshilik o`rtasidagi to`qnashuvlar borligini. bu to`qnashuvda yaxshilik g`olib chiqishini eslaysiz. Endi asarning personajlarini eslab ko`ring.

Sohibjamol va uning yoshi ancha o`tib qolgan ixtirochi otasi Moris. O`ziga haddan ziyod bino qo`ygan yigit Gaston. Uning atrofidagi yugurdaklari, poraxo`r sudya.

Boshqa bir qasrda o`zining nojo`ya harakati bilan, yordamga muhtoj bo`lgan kimsaga yordam berishni istamaganligi uchun sehrlangan personajlar. Bu yerda hamma narsa jonli va ularning barchasi – choynak, chashka, likopchalar, samovar, oyna va boshqa buyumlar gapiradi, o`zining qiyofasiga ega. Ularning hukmdori bahaybat maxluq hamma narsadan umidini uzgan. Chunki uni saroydagilarni o`z holiga keltirish uchun kimdir sevib qolishi lozim. Shunday dahshatli maxluqni kim ham sevar edi. Biroq dunyoda mehr, muhabbat degan kuch bor va u hamma narsaga qodir. Asarning eng qiziq joyi Gaston bilan maxluqning olishuvi bo`lsa kerak. Asar mazmunini xotirangizda tiklab, bunga amin bo`lasiz. Yana bir narsaga ishonch hosil qilasiz, ya`ni birovning mehrini qozonish uchun o`sha odamga mehr-muruvvat ko`rsatish lozim. Agar sohibjamolga shunday mehr-muruvvat ko`rsatmaganda u maxluqqa mehr qo`ymagan boiar edi.

Siz multfilm mazmunini xotirangizda tiklab oldingiz. Endi undagi ko`rinishlar, personajlarning qiyofalarini eslang. Gaston baland bo`yli, ko`krak va bilak mushaklari baquvvat yigit. Lekin u bu kuchlarni yaxshilik yo`liga ishlatmaydi. Shuning uchun ham u mag`lub bo`ladi. Sohibjamolning otasi ixtirochi. Bu uning tashqi ko`rinishida ham ifodalangan. Qoshlari o`siq, tepakal, mo`ylov va sochlari oqargan.

Asarning bosh qahramonlari, shubhasiz, maxluq va sohibjamol qiz Belldir. Sohibjamol bilim olishga chanqoq, u bo`sh paytida kitob o`qiydi.

Kiyimlari bejirim va o`ziga yarashgan. Maxluqning tashqi ko`rinishi uning aksi. U ham juda baquvvat. Lekin yuz tuzilishi, oyoq-qoilari hayvonsifat va qo`rqinchli. Shohona kiyimi, dang`illama qasrda yashashi uning sehrlanguncha kim bo`lganligi haqida o`ylashga majbur etadi. Uning xatti-harakatlarida muruvvatli, yaxshi odamning xislatlari sezilib turadi. Uning sohibjamolga juda katta kutubxona sovg`a qilganligi ham shundan dalolat beradi. Boshqa buyumlarning ko`rinishlari ham, faoliyatlari ham yoqimli. Ular sohibjamol va maxluqni bir-birlariga mehr qo`yishlari uchun harakat qiladilar. Demak, yaxshi niyat yo`lida qilingan xayrli ish, albatta, ijobiy natija bilan tugaydi. Yana bir xulosa: birovga sovg`a berishda uning didiga, ichki dunyosiga mos buyum sovg`a qilish kerak. Shuningdek, sabrli, irodali boiish ham insonni yaxshilikka yetaklaydi.

Multfilmdagi asosiy personajlar va voqealar bilan tanishib olgach, o`zimizga ma`qul bo`lgan kompozitsiya ishlaymiz. Uning uchun avval qalamda bir necha eskiz bajarib olamiz. Ular asosida yaxlit kompozitsiya tuzib, uni akvarel bo`yog`ida ishlaymiz. Ayrimlar rangli qalam va flomasterda ham ishlashi mumkin. Qahramonlarning kiyimlarini bo`yaganda maxluqning kiyimlarini to`q ranglarga, sohibjamolnikini nafis, och ranglarga bo`yagan ma`qul. Bu yondashuv obrazlar dunyosiga mos keladi. Yaxshi chiqqan ishlar yaqin kishilaringiz, ukangiz yoki singlingizga sovg`a bo`lishi mumkin.

KITOB MAKETINI ISHLASH

Kitobning badiiy-grafik elementlari haqida to`liq ma`lumot olgach, o`zingizga ma`qul bo`lgan biror-bir asarga maket ishlab ko`ring. Bu asar she`riy to`plam, kichik hikoya, ertak yoki qadimiy rivoyat, afsona, multfilm bo`lishi mumkin. Ularni bajarib bo`lgach, jamlab kitob holiga keltirasiz. Shu tariqa o`zingiz yaratgan kitobga ega bo`lishingiz mumkin. Bu ishlarni bajarib bo`lgach, kitobning yaratilishi naqadar mashaqqatli, murakkab ish ekanligini teranroq anglaysiz.


Ba`zi kitoblar ko`p yoki noto`g`ri ishlatilganligi bois buzilib ketadi. Avvalo ularning muqovasi yirtiladi. Muqovasi yirtiq kitobni esa varaqlari tezda buklanib ketadi. Shunday kitoblarni ko`rsatilganday muqova yasab ta`mirlab qo`ysangiz, uning umrini yanada uzaytirgan bo`lasiz va bu kitob ukalaringiz va singillaringizga ham uzoq yillar xizmat qilishi mumkin.


Xuddi shunday ishni jurnallar bilan ham bajarish mumkin. Ularning muqovalari ham yupqa bo`lganligi uchun uzoq yillar foydalanishga yaroqsiz. Shuning uchun ularning hajmiga qarab, bir yilligini 1 yoki 2 ta jild bilan muqovalab qo`yilsa, uzoq yillar turaveradi.



Talaba Qilichova Munavvar bilan kitob maketi eskizini muhokamasi.

Demak, eski kitobni ham, jurnallarni ham bir xil usulda muqovalash mumkin. Uning uchun kitob (jurnal) o`lchamidagi ikki bukilgan qog`ozni, buklangan holda pastidan 20 - 30 mm qismiga yelim surtib, unga shu o`lchamda mato yopishtirib chiqamiz. Mato ham yelimlanib blokka yopishtiriladi. Matoning bir qismi blokka yopishtirilgan bo`lsa, ikkinchi qismi muqovaga forzatsni birinchi (chap) varag`iga yopishtirish uchun qoldiriladi. So`ng uning 4 joyidan bir xil masofada teshib ip bilan mahkam tortib blokni birlashtirasiz. Lekin kitobning matn qismini qo`shib tikib yubormaslik lozim. Endi mana shu blokni o`lchamidan kattaroq o`lchamda karton muqova tayyorlaysiz. Bu karton kitobning blokidan 3 - 4 mm kattaroq bo`lishi lozim. Shundagina ular blokni yaxshi himoyalaydi. Demak, muqova uchun tayyorlangan karton pastki butun qismi, qalinligi, qalinligidan blokni tikilgan joyigacha va 1,2 mm oraliq qoldirilgan ustki qismidan iborat bo`ladi. Ularni shu tartibda har tomonidan buklab yopishtirish uchun yetarli bo`lgan matoga yoki chidamli qog`ozga yopishtirib chiqamiz. Matoning to`rttala burchaklari 45° qiyalikda qirqib tashlanadi va buklab kartonning orqa tomoniga yopishtiriladi. Tayyor bo`lgan muqovani blokka kiygizib, avval forzatsni chap tomoni uchun qoldirilgan matoni, so`ng forzatsni yopishtirib 1 - 2 soatga bostirib qo`yamiz. Tayyorbo`lgan muqovani kitobning mazmuniga mos tarzda bezak, yozuv bilan bezatishimiz ham mumkin. Bunday kitob uzoq yillar o`zining sifatini saqlab qoladi. Shuningdek, muqovalangan jurnallar ham ishonchli himoyalangan bo`ladi. Xuddi shuning uchun ham yirik kutubxonalarda kitoblar vaqti-vaqti bilan ta'mirlab turiladi, jurnallar ham bir necha soni birlashtirilgan holda qalin muqovada saqlanadi.





Kitob tayyorlash jarayoni.

UMUMIY XULOSA

Tasvirlanayotgan buyum shakli qanchalik murakkab bo`lsa, chizuvchi uni shunchalik ko`p o`rganishi va tahlil etishi kerak. Qalamtasvirda ilmiy yondoshish, ayniqsa, buyumning chiziqli konstruktiv tuzilishi va perspektiv holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Qalamtasvirda yetuk malakaga erishish ko`p jihatdan narsani o`ziga qarab tasvirlashga bog`liq. Narsani o`ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o`tmasdan badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas.

O`quv qalamtasvirini ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida uning bir necha mustaqil asosiy fanlar bilan bevosita chambarchas bog`liqligini kuzatishimiz mumkin:

I. Perspektiva – buyumning fazoviy holatini tekislikda to`g`ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.

II. Plastik anatomiya – inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.

III. Fizika – buyumlarda yorug` va soylarning taqsimlanishi borasidagi fan.

Ushbu fanlarni har bir talaba umuta`lim maktabida, so`ngra badiiy o`quv yurtida chuqur o`zlashtirgan bo`lishi hamda ularni tasviriy faoliyatda keng qo`llay olishi zarur.

Dumaloq shakldagi buyumlar hajmi ellips, aylana chiziqlar orqali chiziladi. Dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi tus jihatdan kuchliroq tasvirlanadi.

Qirrali buyumlarda bo`lgani kabi, sharsimon buyumlarning chekkalari ham quyuq konturda chizilmaydi. Uning turgan holatiga ko`ra yorug` va orqa fondagi soylar chegarasi bor xolos.

Yevropa realistik tasviriy san`atidan farqli ravishda, sharq tasviriy san`ati o`zining betakrorligi bilan ma`lum va mashhur.

Nuqta, chiziq va shtrix rasm chizishda eng asosiy vazifani bajaradi. Ularsiz hech qanday rasmni tasvirlab bo`lmaydi, shu sababli amaliy bajarilishini alohida ko`rib chiqamiz.

Men o`zimning malakaviy bitiruv ishimda maktabdan tashqari muassasalarda miniatyura san`ati mashg`ulotlarining mazmuni va metodikasi haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim, miniatyura da hajm va fazoviy chuqurlikni tasvirlashni misollar keltirish bilan yoritdim. Shu bilan birga qalam tasvirda hajm va fazoviy chuqurlikni tasvirlashga doir bir nechta yo`llarini ko`rsatdim. Men o`z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`qrisida”gi qonuni. -T., 1997.
2. O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
3. O`zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.-
5. Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Ma’rifat.-2004,- 21 fevral.
6. S.Abdirasulov,N.Tolipov,N.Oripova. Rang tasvir Toshkent-“O`zbekiston”-2006
7. B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli luqati.Toshkent -1994.
8. A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
9. R.Hasanov.”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi”Toshkent.-“Fan”.2004.
10. N.Oyidinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
11. M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
12. Abdirasilov S., Tolipov N. “Rangtasvir” Toshkent, 2005
- 13.. S.BULATOV. “Rangshunoslik” 2009
14. Ozod Yusupov. “Rangtavirda akvarel bian ishlash texnika va texnologiyasi”
15. P.Худайбергaнoв. “Pангшyнослик асослари” – Т.;
16. Boymetov B. “Qalamtasvir asoslari”. O`quv qo`llanma. T-t, 1999.
17. Salpinkidi Ya.P. “Rabota nad obnajennoy modelyu”. T.1996.
18. Beda G.V. «Osnovyi izobrazitelnoy gramoty». Prosvehenie.
19. Tojiev B. «Qalamtasvir asoslarini urganish». T., 1994

Navoiy davlat pedagogika instituti pedagogika fakultetining bitiruvchi kurs talabasi **Qilichova Munavvar Faxriddin** qizining “Harflar, sarlovhalar, xatboshi bezaklari`-lchamlarini toppish, uratlardagi voqiylikni tasvirlash amallari, kitob loyihasi, maketini tayyor-lash” mavzusi-dagi bitiruv malaka-viy ishiga

Ilmiy rahbarning xulosasi

Talaba **Sharipova Maftuna Almas** qizining “**Qalam tasvirda hajm va fazoviy chuqurlikni tasvirlash**” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – Qalam tasvirda hajm va fazoviy chuqurlikni tasvirlashning o`rni haqida umumiy tushuncha berganligi va o`quvchilarni barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy san`atning roli, tutgan o`rni, qonun-qoidalari, uni idrok etish usullariga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, malakaviy bitiruv ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 54 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, Qalam tasvirda hajm va fazoviy chuqurlikni tasvirlashni yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligi, qalamtasvir fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etilganligi, “qalamtasvir” fanida olib boriladigan masg`ulotlarda o`quvchilarning ijodkorlini, faolligini oshirishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e`tiborni qaratgan.

Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda qiyosiy tahlil- pedagogik ko`zatuv, tajriba-sinov, metodlaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o`rganish shundan dalolat beradiki, Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi, ilmiy apparati puxta o`ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qo`lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o`z echimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishida tadqiqotchi Pirmatova Ra`no Maxmayusupovna tomonidan ayrim kamchiliklarga ham yo`l qo`yilgan, jumladan:

1. Malakaviy bitiruv ishi matnida imloviy xatolar uchraydi. Masalan, 15, 19-betlar.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida qalamtasvir darslarining mazmuni to`g`risida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq shakllantirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Bildirilgan fikrlar, taklif va mulohazalar dissertatsiya ishining ilmiy qimmatiga ta'sir ko`rsatmaydi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi talablariga to`liq mos keladi. Uning muallifi – Pirmatova Ra'no Maxmayusupovna – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ixtisosligi bo`yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Ilmiy rahbar: _____ o`qituvchi Sh.U.Bobonazarov.

Navoiy davlat pedagogika instituti
pedagogika fakultetining bitiruvchi kurs talabasi
Qilichova Munavvar Faxriddin qizining

“Harflar, sarlovhalar, xatboshi bezaklari`-
lchamlarini toppish, suratlardagi voqiylikni
tasvirlash amallari, kitob loyihasi, maketini
tayyorlash” mavzusidagi bitiruv malaka-viy
ishiga

T A Q R I Z

Qilichova Munavvar Faxriddin qizining “Harflar, sarlovhalar, -xatboshi bezaklari`-lchamlarini toppish, suratlardagi voqiylikni tasvir-lash amallari, kitob loyihasi, maketini tayyorlash” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – o`quvchilar tafakkurini o`stirish muammosining yechimini topishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, malakaviy bitiruv ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Talaba malakaviy bitiruv ishida amaliy san`atni o`qitish tarixi haqida umumiy tushuncha berishni, amaliy san`at usullarini bayon etishni va amaliy san`atni o`qitish tarixiga doir bir nechta ishlardan namunalar keltirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foyda- lanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 50 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, amaliy san`atni o`qitish tarixi haqidagi tushunchasini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy- nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida amaliy san`at o`quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi va umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilariga, amaliy san`atni o`qitish tarixini pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e`tiborni qaratgan. Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil- pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, amaliy san`atni o`qitish tarixi usullaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o`rganish shundan dalolat beradiki, dissertat- siyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta o`ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qo`lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o`z yechimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Qilichova Munavvar Faxriddin qizitomonidan ayrim kamchiliklar ham uchraydi, jumladan:

1. Malakaviy bitiruv ishi matnida imloviy xatolar uchraydi. Masalan, 14, 17-betlar.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida amaliy san'atni o'qitish tarixi metodlari to'g'risida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq shakllantirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bildirilgan fikrlar, taklif va mulohazalar dissertatsiya ishining ilmiy qimmatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi talablariga to'liq mos keladi. Uning muallifi- Qilichova Munavvar Faxriddin qizi—"tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi ixtisosligi bo'yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Nav.D.P.Instituti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasikafedراس
o'qituvchisi" **A.A.Shovdirov**

Navoiy davlat pedagogika instituti pedagogika fakultetining bitiruvchi kurs talabasi **Qilichova Munavvar Faxriddin** qizining “Harflar, sarlovhalar, xatboshi bezaklari o`lchamlarini toppish, suratlardagi voqiylikni tasvirlash amallari, kitob loyihasi, maketini tayyorlash” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Talaba Qilichova Munavvar Faxriddin qizi “O`zbekistonda amaliy san`atni o`qitish tarixi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi o`rta maktabda amaliy san`at fanining rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlarini e`tiborga olgan holda yozilganligi bilan bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo`lib borishi bilan belgilanadi.

Talaba malakaviy bitiruv ishida amaliy san`atni o`qitish tarixi haqida umumiy tushuncha berishni, amaliy san`atni o`qitish tarixini bayon etishni va amaliy san`atni o`qitish tarixi haqiga doir bir nechta qo`llanmalardan namunalar keltirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 50 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, amaliy san`atni o`qitish tarixi fanini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at o`quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi, hamda umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida amaliy san`atni o`qitish tarixi fanini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e`tiborni qaratgan.

Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil-pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, amaliy san`at metodlaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o`rganish shundan dalolat beradiki, dissertat- siyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta o`ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijro- si oqibatida qo`lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o`z yechi- mini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Qilichova Munavvar Faxriddin qizitomonidan ayrim kamchiliklarga ham yo`l qo`yilgan, jumladan:

1. Nazarimizda, amaliy san`at o`qitishning birnecha dars konspektini 2-bobida batafsil keltirib o`tilsa, maqsadga muvofiq bo`lardi.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida ayrim texnik xatolar uchraydi;

Umuman, yuqorida bildirilgan noaniqliklar tadqiqotchi Qilichova Munavvar Faxriddin qizio`tkazgan tadqiqotning ilmiy qimmatiga putur yetkazmaydi, aksincha tadqiqot haqqoniy bajarilganligidan dalolat beradi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi talablariga to`liq mos keladi. Uning muallifi- Qilichova Munavvar Faxriddin qizi– “tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” yo`nalishi ixtisosligi bo`yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Navoiy Madaniyat va san`at kolleji o`qituvchisi

Furqat Aslonov